
BOSHLANG'ICH TASHKILOT YeTAKCHISI: HISOBOT-SAYLOVI

Toshloq tumanidagi umumta'lim maktablarida O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining hisobot-saylov yig'ilishlari bo'lib o'tmoqda.

9-maktabda o'tkazilgan hisobot-saylov yig'ilishida yosh ishchi-xodimlar, maktab rahbariyati ishtirok etdi. Kun tartibidagi masalalar yuzasidan takliflar delegatlar tomonidan ovoz berilib, boshlang'ich tashkilotning o'tgan davrdagi faoliyati qoniqarli deb topildi. 88 foiz ovoz bilan boshlang'ich tashkilot yetakchisi sifatida Feruza Mo'minova saylandi. Boshlang'ich tashkilotning 1 yillik ish rejasi ham tasdiqlandi.

42-maktabdagi hisobot-saylov yig'ilishda 16 nafar yosh ishchi-xodimlar hamda maktab rahbariyati ishtirok etib, boshlang'ich tashkilotning o'tgan davrdagi faoliyati qoniqarli deb topildi. 86 foiz bilan tashkilot yetakchi sifatida Nasiba Abdullayeva saylandi.

Xozirda maktablarda o'quvchilar tomonidan maktab sardorlarini saylash jarayonlari bo'lib o'tmoqda. Yoshlar o'zlari munosib deb topgan o'quvchilariga ovoz berishmoqda. Maktab sardorligiga ovoz berish jarayonlari tumanimizdagi barcha maktablarda ko'tarinki ruhda davom etmoqda.

2022-09-16 16:53:10